

DARVESH ALI CHANGIYNING MUSIQIY MEROSI XUSUSIDA

Respublika musiqa va san'at texnikumi

Abduraimov Ziyodulla

Xoliqov Xusniddin

Annotatsiya: Ushbu maqolada XVII asr Xorazm musiqa maktabining yorqin vakili Darvesh Ali Changiyning musiqiy merosi tahlil qilinadi. Muallifning maqom san'ati rivojiga qo'shgan hissasi, uning bastakorlik faoliyati, kuy va navolardagi uslubiy xususiyatlari o'rganilgan. Darvesh Ali Changiy o'zining ijodiy faoliyati orqali xalq cholg'ulari va an'anaviy maqomlarni rivojlantirishda katta rol o'ynagan. Uning musiqasi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, milliy madaniyatimizning muhim tarkibiy qismidir. Maqolada tarixiy manbalar va zamonaviy tadqiqotlar asosida Darvesh Ali Changiy merosining madaniy va san'atshunoslik jihatlarini yoritilgan.

Kalit so'zlar: Darvesh Ali Changiy, musiqa nazariyasi, maqomot, ilm, musiqiy ta'limot, parda, usul, lad.

O'zbek musiqa san'ati tarixida o'ziga xos iz qoldirgan san'atkorlar orasida Darvesh Ali Changiy alohida o'rin egallaydi. U XVII asrda yashab, Xorazm musiqa maktabining shakllanishi va rivojlanishiga katta hissa qo'shgan bastakor va sozanda sifatida tanilgan. Uning ijodi nafaqat san'at nuqtai nazaridan, balki madaniyatshunoslik va tarixiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Buxoroda yashab ijod etgan bu ulug' musiqashunos, san'atkor hayotining so'nggi yillari Imomqulixon zamoniga to'g'ri keladi. Uning oxirgi yirik musiqiy risolasi aynan shu Imomqulixonga bag'ishlangan. Ma'lumki, mazkur davr Movarounnahr tarixida ijtimoiy-siyosiy vaziyat o'zgarib, ko'proq diniy xurofotga yuz tutilgan payt edi. Madaniy-ma'rifiy sohada ham Temuriylar saltanatida oliy maqomda bo'lgan va buyuk cho'qqilarga erishgan nafis san'atlarga e'tibor kamaya boshladi. Shuning uchun Darvesh Alining musiqiy ta'limoti, davr taqozosiga ko'ra, Kavkabiylar tafakkuridan boshqacharoq ehtiyojlarga qaratilganligi bilan xususiyatlanadi. Ubaydulloxon badiiy ilmlar sohasida yetuk tarbiya olgan, ayniqsa, she'riyat va musiqiy san'atga katta qiziqish bilan yondashgan bo'lsa, Imomqulixon bu borada unchalik e'tiborli bo'lmagan. Shu sababli, o'z davrining yirik allomasi Darvesh Ali Changiy musiqiy masalalarni nafaqat ilmiy-nazariy asosda, balki bu san'atning fazilati haqida hadis va hikmatlarga tayanib, zamon ongida shakllangan an'analarga mos rivoyat va afsonalar orqali izohlashga majbur bo'lgan. Shunday bo'lsa-da, Darvesh Ali o'z mohiyati bilan Temuriylar davrida shakllangan buyuk madaniy-ma'rifiy an'analarning merosxo'ri edi. U badiiy ilmlar, ayniqsa musiqa nazariyasi va amaliyotining chuqur bilimdonlaridan bo'lib, Qur'on hofizi, mohir sozanda va mahoratli xonanda sifatida tanilgan. U zamonasining bilimdonlari davrasida hurmatga sazovor ustoz bo'lgan.

Darvesh Alining yaratgan risolasi – o'z davri va hududi uchun eng muhim musiqiy ensiklopediya bo'lib xizmat qilgan. Ushbu asarda O'rta Osiyo xalqlarining musiqiy

20-Fevral, 2025-yil

madaniyati tarixiy ildizlari, shakllanish bosqichlari va keyingi ilmiy qarashlar bilan uzviy bog‘langan holda yoritilgan. Bu risola bugungi kunda ham noyob manba sifatida qadrlanadi.

Darvesh Ali merosini chuqur o‘rganish mustaqil bir ilmiy tadqiqot mavzusi hisoblanadi. Hozirgi tadqiqot doirasida esa Darvesh Alining risolasi, avvalo, maqom ilmi bilan bog‘liq jihatlari bilan alohida e‘tiborga loyiqdir. Asarda bayon etilgan diniy va dunyoviy fikrlar, ilmiy-nazariy mulohazalar, hayotiy tajribalar asosida shakllangan urf-odatga aylangan tushunchalar, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan rivoyatlar hamda qadimiy afsonalar maqomotning nazariy asoslarini anglash va ularning tarixiy taraqqiyotini tushunishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Musiqaning sharafiga asoslashda hadislariga murojaat qilinishi va shu orqali murakkab hamda mavhum bo‘lishiga qaramay, hayotbaxsh san‘at turlaridan biri bo‘lgan musiqaga diniy va dunyoviy ilmlar nuqtai nazaridan yondashilishi Darvesh Alining yirik mutafakkir sifatidagi maqomini belgilaydi. Ayniqsa, u o‘z risolasida parda (maqom) va usul kabi musiqaning nazariy asoslarini diniy-ma‘rifiy qarashlar bilan uyg‘unlashtirib bayon etgan. Bu jihatlar Darvesh Alining asarini mintaqaning musiqa tarixi kontekstida betakror va muhim ilmiy manba sifatida baholashga asos yaratadi.

Darvesh Ali risolasida riyoziy va tabiiy ilmlardan ko‘ra, an‘anaviy yo‘l-yo‘riqlar ko‘proq o‘rin oladi. Uning birinchi bobida samo‘ va dafga oid hadislar, ikkinchi bobida ilmi musiqiyni kuy(alhon) va vazn(iyqo‘) asoslari bayon etilgandan so‘ng, uchinchi bobida to‘g‘ridan-to‘g‘ri asl maqomlar va ularning tarmoqlari (sho‘ba, ovoz va ranglar)ning yuzaga kelishiga oid urf-odatlar bayon etiladi. Mazkur bob: «Bilginki, Xoja Abdulqodir ibn Abdurahmon Marog‘iy, Xoja Safiuddin ibn Abdumo‘min va Sulton Uvays Jaloyirlar ta‘kidlashicha, avval 7 payg‘ambardan 7 maqom va Bobo Umardan qolgan yana bittasi bo‘lgan» – degan jumla bilan boshlanadi. So‘ngra har bir maqomni ulug‘larga nisbat qilinishiga oid mufassal rivoyatlar keltiriladi: Rost – Odam Ota bilan Momo Havvo hijron nidolari; Ushshoq – Nuh nolasi, Navo – Dovud hasrati; Hijoz – Sulaymonning shodlik kuylari; Iroq – Ayyubning muhtalolik sadolari; Husayniy – Yoqub firoqi; Rahoviy – Qur‘oni Karim nozil bo‘lganda Muhammad (s.a.v.) tilovat qilgan ohanglar, Busalik – Bobo Umar tuya yetaklaganda aytadigan kuy.

Mazkur tamoyildan maqomlarning nafaqat nom-nishonalari, balki ular atrofida yuzaga keladigan fikr-mulohazalar ham doimiy almashib turadi, degan xulosa kelib chiqadi. Xususan, bu mavzuda Darvesh Ali Aflotun zamonlarida taraqqiy topgan fazoviy (kosmologik) qarashlarga ko‘ra 12 maqom falak burjlari: Rost-Hamal, Isfahon-Savr, Iroq-Javzo, Kuchak-Saraton, Buzruk-Asad, Hijoz-Sumbula, Busalik-Mezon, Ushshoq-Aqrab, Navo-Qavs, Husayniy-Jadiy, Zangula-Dalv, Rahoviy-Hutdan taralganligini qayd etadi.

Shu bilan barobar 12 maqom Hazrati Muso hassasini toshga urganda paydo bo‘lgan 12 buloqdan chiqqan ovozlardan iboratligi haqidagi mashhur afsona ham tilga olinadi.

Undan keyin yana hayotiy voqealarga qaytib, ustozlar o‘z bilim va mahoratlarini ishga solib, har bir maqomning yuqori va pastki bo‘lagini ajratib ikki sho‘ba, ikki maqomni qo‘shilishidan bir ovoz va ikki ovozni birlashtirib bir rang qilganliklari tushuntiriladi.

20-Fevral, 2025-yil

Mutaorifiy ilmlar izchil tizim ekanligini isbotlovchi yana bir dalil shundan iboratki, Darvesh Ali risolasida barqaror odat tusini olgan maqom atamalari bilan bir qatorda, amaliyotga tatbiq qilinmagan Qayri mutaorifiy (ya’ni, urf etilmagan)lari ham mavjudligi e’tirof etiladi. Faqat Husayniy-Zerkash, Kuchakni-Zarafkand, Iroqni-Qavro, Zangulani-Nahovand, Rostni-Ummul advor, Hijozni-Nigoriy, Busalikni-Chakoviy, Navoni-Nag’mai Dovudiy, Ushshoqni-Tarona, Buzrukni-Avj deyilganligi tilga olinadi. Ushbu nuqtai nazardan iyqo’ masalalariga bag’ishlangan 4-bobni «Mutaorif 17 usul bahri va 24 Qayri mutaorif usul ma’rifati haqida» – deb nomlanishining o’zi alohida diqqatga sazovor. Mazkur bob – «Bilginki, 12 usul qadimiydir» – deb boshlanadi. Bunday «qadim» atamasi «sara», «mumtoz» ma’nosini anglatadi. Ya’ni, tajribada pishib yetilgan, ajdodlar tomonidan e’zozlangan mo’tabar usullar demakdir.

Darvesh Ali risolasidagi qiziqarli jihatlaridan biri — unda mumtoz musiqadagi ayrim usullarni jonli mavjudotlarning harakat va tovushlariga bog’lab tushuntirish an’anasi bayon etiladi. Masalan, «zarbul qadim» deb ataladigan eng qadimiy usul yurak urishining ritmiga asoslangan degan qarash musiqashunoslar orasida keng tarqalgan.

Bunday rivoyatlar xalq orasida hayajon bilan tilga olinib, ko’p hollarda qiziqarli suhbat mavzusiga aylanadi. Shunga qaramay, Darvesh Ali bu usullarning asl manbasi sifatida xalq rivoyatlaridan ko’ra ilmi musiqa bilan shug’ullangan olimlarning ilmiy yondashuvlarini e’tiborga olish kerakligini ta’kidlaydi. Unga ko’ra, bu usullar — tasodifiy emas, balki advor ilmi asosida yaratilgan ilmiy-nazariy tizim natijasidir. Bu borada Xoja Abdulqodir Marog’iy alohida ajralib turadi. U «saromadi advor» — ya’ni musiqa tizimining ustuni, peshvosi sifatida tan olingan. Darvesh Ali uning merosiga asoslanib, 17 ta mutaorif (asosiy tan olingan) usul aynan Xoja Abdulqodirga tegishli ekanini, qolgan 24 ta g’ayri mutaorif (kamroq tan olingan) usullar esa boshqa ustozlar tomonidan yaratilganini aniq ko’rsatadi.

Darvesh Ali risolasining nazariy emas, balki amaliy yo’nalishga urg’u berganini yana bir bor tasdiqlovchi dalil shuki, asarning tegishli bobida avvalo amaliy bilimlar asosidagi 17 ta musiqiy usul ro’yxati beriladi. Faqat undan keyingina nazariy tushunchalar — ya’ni niqra, zarb, bo’g’in, bahr kabi atamalar qo’shimcha tarzida taqdim etiladi. Bu qism maxsus “foйда” deb atalgan sarlavha ostida ajratilgan.

Shuningdek, risolaning 5-bobi musiqaning shakl va tuzilishiga oid tasnifotga bag’ishlangan bo’lib, unda ham mutaorifiy tartib asos qilib olingan. Avvalo musiqada keng tarqalgan navlar (uslublar, ohanglar) haqida ma’lumot beriladi, so’ng ularning tarixi va nazariy asoslari haqida fikr yuritiladi.

Qiziq jihat shundaki, Darvesh Ali o’z bayonotlarida Marog’iy va Kavkabiylar asarlaridagi mashhur navlarga tayangan bo’lsa-da, ularda uchraydigan “navba” va “navbati murattab” kabi atamalarni tilga olmaydi. Bu holat turlicha fikrlar uyg’otadi.

Ehtimol, bu Darvesh Alining risolani yozgan davrida, ya’ni uning hayotining so’nggi yillarida ilmi advor (musiq nazariyasi) tanazzulga yuz tutib, “navba” va “navbati murattab” kabi navlar amaliyotdan chiqib ketgan, ularning o’rnini esa mutaorifiy kulliyot va keyinchalik shakllangan Shashmaqom majmualari egallagan bo’lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Darvesh Ali Changiy. Risolai musiqiy. Qo'lyozma. O'zR FASHI. Inv. 468
2. Rajabov I. Maqomlar. – Toshkent: “SAN'AT” nashriyoti, 2006;
3. Rajabov I. Sharq musiqa atamalarining qisqacha lug'ati. – Toshkent: “Tamaddun” nashriyoti, 2023
4. O.Matyoqubov. Maqomot. Toshkent, 2004;
5. Matyoqubov Sh.B. An'anaviy xonandalik asoslari. – Toshkent: “Adast poligraf” nashriyoti, 2022.

